

Date: 11th February-2026

XORIJIY TADQIQOTLARDA AYOLLAR MIGRATSIYASI MOTIVLARI VA PSIXOLOGIK MOSLASHUV OMILLARINING NAZARIY-ILMIY TAHLILI

Yuldasheva Shaxnoza Ulug'bekovna

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur tezisda xorijiy olimlar tomonidan ayollar migratsiyasi motivlari, ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlar hamda yangi madaniy muhitga moslashuv mexanizmlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ayollar migratsiyasining iqtisodiy, gender va psixologik determinantlari yoritilib, huquqiy maqom, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va akkul'turatsiya strategiyalarining moslashuv jarayonidagi o'rni asoslanadi.

Kalit so'zlar: ayollar migratsiyasi, migratsiya motivlari, gender omili, akkul'turatsiya, psixologik moslashuv, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy maqom.

Аннотация. В тезисе анализируются мотивы женской миграции и социально-психологические последствия миграционных процессов на основе зарубежных исследований. Раскрываются гендерные особенности принятия миграционных решений, факторы адаптации и роль правового статуса, социальной поддержки и стратегий аккультурации.

Ключевые слова: женская миграция, миграционные мотивы, гендерный фактор, аккультурация, психологическая адаптация, социальная поддержка, правовой статус.

Annotatsion. This thesis examines female migration motives and socio-psychological adaptation mechanisms based on foreign research. It highlights gender-specific determinants of migration decisions and analyzes the role of legal status, social support, and acculturation strategies in the adaptation process.

Keywords: female migration, migration motives, gender factor, acculturation, psychological adaptation, social support, legal status.

Globalashuv sharoitida migratsiya jarayonlari ijtimoiy tuzilma, oila tizimi va shaxs identitetiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi murakkab va ko'p qirrali hodisaga aylandi. Transmilliy iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, mehnat bozorining integratsiyalashuvi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi migratsiya oqimlarini jadallashtirdi. Natijada migratsiya endilikda faqat iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy identitet transformatsiyasi, gender rollarining qayta taqsimlanishi va oilaviy tizimning restrukturizatsiyasi bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida talqin qilinmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda ayollar migratsiyasi global migratsion oqimlarning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, gender jihatdan mustaqil qaror qabul qiluvchi ayollar ulushi ortib bormoqda. Agar ilgari ayollar ko'proq "ergashuvchi migrant" maqomida talqin qilingan bo'lsa, bugungi kunda ular migratsion strategiyaning faol subyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon ayollarning iqtisodiy ehtiyojlari, ijtimoiy bosim, oilaviy majburiyatlar, gender tenglikka intilish va shaxsiy o'sish motivlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, migratsiya ayollar uchun ijtimoiy mobilitet va o'zini anglash imkoniyatini ham yaratadi.



Date: 11th February-2026



Xorijiy tadqiqotlarda ayollar migratsiyasi ko'p omilli hodisa sifatida talqin qilinadi. J. Ghosh ayollar migratsiyasida iqtisodiy mustaqillikka intilish, ijtimoiy mavqeini oshirish, mehnat bozorida o'z o'rnini topish hamda gender tenglik imkoniyatlaridan foydalanish asosiy motivlar qatoriga kirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, migratsiya ayollar uchun nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy o'zini tasdiqlash mexanizmi hamdir. Shu bilan birga, majburiy migratsiya shakllarida siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar, inson huquqlari buzilishi va ekologik omillar hal qiluvchi determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Migratsiya jarayonida ayollarning ijtimoiy-psixologik holati ko'plab stress omillari bilan bog'liq. S.V. Ryazansev va hamkorlari ayol migrantlar mehnat bozorida ikki tomonlama diskriminatsiyaga duch kelishini asoslab berganlar. Ular nafaqat migrant sifatida, balki ayol sifatida ham ijtimoiy himoyasizlik holatiga tushib qoladilar. Bu holat gender stereotiplari, past malakali mehnat segmentlariga yo'naltirilish, mehnat sharoitlarining og'irligi va ijtimoiy kafolatlarning yetishmasligi bilan izohlanadi. Natijada psixologik zo'riqish, xavotir, emotsional beqarorlik, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi kabi holatlar kuzatiladi.

Ayollar migratsiyasini tushuntirishda transmilliylik nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, migrant ayollar bir vaqtning o'zida ikki ijtimoiy makonda – vatani va qabul qiluvchi jamiyatda – faoliyat yuritadilar. Ular doimiy kommunikatsiya, moliyaviy pul o'tkazmalari va raqamli aloqa vositalari orqali transmilliy oilaviy tizimni shakllantiradilar. Bu esa "masofaviy onalik" fenomenini yuzaga keltiradi va shaxs identitetida ikkilik holatini keltirib chiqarishi mumkin.

Dj. Berrining akkul'turatsiya modeli migrantlarning yangi madaniyatga moslashuvini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Integratsiya strategiyasi – ya'ni o'z milliy identitetini saqlagan holda yangi madaniyat elementlarini qabul qilish – psixologik barqarorlikni ta'minlovchi eng samarali model sifatida baholanadi. Assimilyatsiya strategiyasi qisqa muddatda ijtimoiy moslashuvni tezlashtirishi mumkin, biroq uzoq muddatda identitet inqirozini keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Marginalizatsiya esa emotsional ajralish, ijtimoiy izolyatsiya va stressni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

T.G. Stefanenko va boshqa tadqiqotchilar migrantlarning vatandoshlar bilan aloqasi psixologik tayanch va xavfsizlik hissini mustahkamlashini ta'kidlaydilar. Etnik diasporalar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, axborot almashish va mehnat topishda muhim rol o'ynaydi. Biroq ortiqcha yopiq guruhlik va izolyatsiya mahalliy jamiyat bilan ijtimoiy integratsiyani cheklashi, madaniy adaptatsiyani sekinlashtirishi mumkin.

Huquqiy maqom ham muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. Qonuniy migratsiya sharoitida ayollarda xavfsizlik, nazorat va barqarorlik hissi yuqoriroq bo'ladi. Noqonuniy maqom esa doimiy qo'rquv, ekspluatatsiya, zo'rvonlik va inson savdosi xavfini oshiradi. Huquqiy noaniqlik psixologik stressning kuchayishiga, ijtimoiy izolyatsiyaga va depressiv simptomlarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, migratsiya jarayoni oila tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gender rollarining qayta taqsimlanishi, masofaviy nikoh munosabatlari, farzand tarbiyasida emotsional bo'shliq va kommunikativ masofa oilaviy dinamikada

Date: 11th February-2026

transformatsiyani yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikning oshishi oilaviy nizolarni kamaytirishi va ijtimoiy maqomni mustahkamlashi mumkin. Demak, migratsiyaning ta'siri ambivalent – ya'ni bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarni yuzaga chiqaradi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar migratsiyasi iqtisodiy ehtiyoj, gender tenglik, ijtimoiy bosim, oilaviy strategiya va shaxsiy rivojlanish omillarining murakkab uyg'unligi natijasida shakllanadi. Moslashuv jarayonining samaradorligi huquqiy maqom, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shaxsiy psixologik resurslar hamda tanlangan akkul'turatsiya strategiyasiga bevosita bog'liqdir.

Shu bois ayollar migratsiyasi masalasi faqat demografik yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar doirasida emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida kompleks yondashuv asosida o'rganilishi zarur. Bu esa genderga sezgir migratsion siyosat, psixologik maslahat xizmatlari va adaptatsion dasturlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berry J.W. Acculturation and psychological adaptation. – 2001.
2. Ghosh J. Migration and gender empowerment. – UNDP, 2009.
3. Ryazansev S.V., Rostovskaya T.K., Peremyshlin S.N. Gender aspects of labor migration in Russia. – 2019.
4. Stefanenko T.G. Ethnopsychology. – 2004.
5. Triandafyllidou A. Contemporary Migration in Europe. – 2006.